



МАКТАБ ТА’ЛИМИДА БО’ЛАЖАК ДЕФЕКТОЛОГ MUTAXASSISLARNI INKLYUZIV TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSI

Sattorova M.A.

ATMU Pedagogika kafedrası dotsenti

Tayanch soʻzlar: taʼlimni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari, boʻlajak defektolog, inklyuziv tayyorgarligini rivojlantirish muammosi, maktab taʼlimida boʻlajak defektolog mutaxassislarni inklyuziv tayyorgarligini rivojlantirish muammosi, nogiron va maxsus ehtiyojli taʼlim oluvchilar.

Ключевые слова: приоритетные направления развития образования, проблема развития инклюзивной подготовки будущего логопеда, проблема развития инклюзивной подготовки будущих логопедов в школьном образовании, учащиеся с ограниченными возможностями и особыми потребностями.

Key words: priority areas of education development, the problem of developing inclusive training of future speech therapists, the problem of developing inclusive training of future speech therapists in school education, students with disabilities and special needs.

Резюме: Ushbu maqolada umumiy oʻrta taʼlimda mutaxassislarni inklyuziv tayyorgarligini rivojlantirish muammolari yoritilgan.

Резюме: В данной статье рассмотрены проблемы развития инклюзивной подготовки специалистов общего среднего образования.

Summary: This article describes the problems of developing inclusive training of specialists in general secondary education.

Maktab taʼlimida boʻlajak defektolog mutaxassislarni inklyuziv tayyorgarligini rivojlantirish muammosi Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim sohasidagi davlat siyosati umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillari, inson huquqlari, taʼlimning gumanistik mohiyati, har kimning bilim olishga boʻlgan konstitutsiyaviy huquqlarining kafolatlanishi, taʼlim olishdan teng huquqlilikdan foydalanishga tayanadi. Taʼlimni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari etib quyidagilar belgilangan: taʼlim sohasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining kafolanishi; taʼlim olishda tenglik, shu jumladan, rivojlanishida maxsus psixofizik xususiyatlari boʻlgan shaxslarga, ularning sogʻligʻi va bilim qobiliyatlariga muvofiq, asosiy taʼlimning barcha darajalarida va qoʻshimcha taʼlim olishda shart-sharoitlar yaratish;



rivojlanishida maxsus psixofizik xususiyatlari bo'lgan shaxslarga maxsus ta'lim olish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratish va ularga korreksiyalovchi pedagogik ko'mak berish; shaxsning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini, shuningdek shaxsni shakllantirishda, malakali kadrlarni tayyorlashda jamiyat va davlatning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari; sifat, qulaylik, shaxsga yo'naltirilganlik, mazmun, ta'lim dasturlari va ta'lim yo'nalishlarining turli-tumanligi va hokazo.

Davlatimizning ustuvor siyosati yosh avlodni aqlan teran, jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, har tomonlama rivojlangan komil inson qilib voyaga yetkazishdan iborat. Buyuk mutafakkirlarimizning asarlarni tahlil qilar ekanmiz, ular o'z asarlari bilan nogiron bolalar ta'lim tarbiyasi mazmunining boy metodologik asoslarini yaratganliklarining guvohimiz. Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarimizning barchasi jamiyatni bir butun deb qarab, barcha insonlarni teng deb hisoblaganlar. Demak, maxsus ehtiyojli bolalarga ham jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida ta'lim tarbiya berish hozirgi zamon kabi o'sha XI-XII asrlardayoq buyuk Sharq mutafakkirlarining ham diqqat markazidan chetda qolmagan. Juda ko'plab davlatlarda maxsus yordamga muhtoj bolalarni tarbiyalashda kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashtirishni to'raligicha yo'lga qo'yish maqsadida umumta'lim maktablarida ta'lim berish davlat siyosati rejasiga kiritildi. Buning natijasida esa 1990 yilda Tailandda Umumjahon Konferensiyasi bo'lib o'tdi. Bu konferensiyada "Ta'lim hamma uchun" Umumjahon Dekloratsiyasi qabul qilindi.

"Inklyuziv ta'lim" tushunchasi ingliz tilidan, inclusive, inclusion - uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi. P.f.n, dotsent R.Shomahmudova "Nogiron va maxsus ehtiyojli ta'lim oluvchilar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar, oilaning faol ishtirokida, xususan bolaning ehtiyojini qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirish va umumta'lim tizimiga to'liq qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir"-deb ta'rif berib o'tgan. Bizning tadqiqotimiz aynan jismoniy imkoniyati cheklangan yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, ularni kasb-hunarga tayyorlash muammosiga qaratilganligi bois biz Respublikamiz va hamdo'stlik mamlakatlarida maxsus pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlariga ko'proq to'xtaldik.

Defektologiya (lot. defectus – nuqson) — jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalar rivojlanishining psixofizik xususiyatlarini o'rganish, ularga maxsus ta'lim-



tarbiya berish, undagi nuqsonlarni yo‘qota borish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan. Ko‘r va ko‘zi ojiz, kar va qulog‘i og‘ir, aqli zaif, tayanch-harakat apparatida nuqsoni bor, nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar Defektologiya fani obektidir. Shunga ko‘ra defektologiya to‘rt alohida sohaga bo‘linadi: Surdopedagogika (kar va qulog‘i og‘ir bolalarni o‘qitish, tarbiyalash usullarini o‘rganadi), Tiflopedagogika (ko‘r va ko‘zi ojiz bolalarni o‘qitish va tarbiyalash masalalarini tadqiq etadi), oligofrenpedagogika (aqli zaif bolalarni o‘qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini ishlab chiqadi), logopediya (nutq kamchiliklari bo‘lgan bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanadi). Dastlab surdopedagogika va tiflopedagogika paydo bo‘lgan. Keyinchalik logopediya va oligofrenpedagogikaga asos solingan. Nuqsonli va psixofizik kamchiligi bor bolalarning ruhiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi maxsus psixologiya, shuningdek, ta‘limtarbiya berish, nuqsonlarni tuzatish, tiklash vositalarini ishlab chiquvchi surdotexnika va giffotexnika ham Defektologiya anatomiya, fiziologiya, patofiziologiya, nevrologiya, nevropatologiya, eshitish, ko‘rish va nutq pa-tologiyasi, maktab gigiyenasi, umumiy va pedagogik psixologiya, tilshunoslik va boshqa fanlar fanlar bilan uzviy bog‘langan. Defektologiyaning asosiy vazifasi nuqsonli bolalarni aniklash, tashhis usullarini ishlab chiqish, ular uchun maxsus va mujassamlashtirilgan ta‘limtarbiyani tashkil etish, aqliy va jismoniy kamchiliklarni yo‘qotish vositalarini izlab topish, amalda qo‘llash, ularni hayotga tayyorlash, ijtimoiy foydali insonlar qilib yetishtirishdan iborat.

O‘zbekistonda Defektologiyaning ilmiy-nazariy, metodik va amaliy tadqiqatlari bilan G.SH.Aytmetova, YE.D.Gordiyenko, L.R.Mo‘minova, R.Shomaxmudova, G‘.Shoumarov va boshqalar shug‘ullangan.

Integrativ ta‘lim g‘oyasi ko‘proq o‘tgan asrda rivojlantirilgan. Integrativ (lotinchadan – aloqa, uyushma, birikma) ta‘lim tizimi – muayyan zanjir atrofida o‘quv matetriallarining birlashishi deb tavsiflanadi. XX asr boshlarida Shveysariya, Belgiya, Germaniya, Avstriya va boshqa mamlakatlar ta‘limida integrativ texnologiyalari istiqbolli va samarali muhokama qilingan.

Hozirgi davrda oliy ta‘lim mazmunini yangilashning konseptual qoidalaridan biri bu kompetentlik nuqtai-nazardan integrativ yondashuv hisoblanadi. Uni amalda joriy etish jarayoni esa, ta‘lim mazmuni, metod, vosita va texnologiyasiga yangicha intilishni talab etadi. D.Sh.Djurayevaning fikriga ko‘ra zamonaviy didaktikada o‘quv fanlari mazmuni uyg‘unlashuvi kerak. Integratsiyaning metodologik asosi integrativ yondashuv hisoblanadi, uning mohiyati ilmiy-tadqiqot ishlarida asoslangan [28]. Lekin, fanlararo uzviylik ko‘p qirrali fenomen, hozirgi kunga qadar, pedagogika fanlari vakillari

o‘rtasida “fanlararo”, “fanlar o‘rtasida” tushunchalariga qarashlari birligi ishlab chiqilgan emas. O‘quv jarayonida fundamental fanlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat g‘oyasini o‘zida mujassam etgan yagona, yaxlit metodikasi mavjud emas.

Integrativ yondashuv – mazmunan jihatdan aloqador, mantiqiy bir-birini to‘ldiruvchi va kengaytiruvchi fanlararo integratsiyalash, sohalar integratsiyasi, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi uchun qo‘llanilib, mantiqiy mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni hamda qobiliyatlarini tarkib toptirishdir.

Maxsus pedagogika sohasida yetuk olim L.R.Mo‘minova tomonidan maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning nutqidagi nuqsonni bartaraf etish bo‘yicha korreksion-pedagogik ishlarning nazariy asoslari ishlab chiqilgan, shuningdek, bolalarni logopedik tekshirish va o‘qitish metodikasi yaratilib amaliyotga joriy etilgan.

L.SH.Nurmuhammedovanning “Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari” ilmiy tadqiqotlari doirasida oilada nogiron farzandi bor ota-onalarning o‘ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari va ijtimoiy-pedagogik, psixologik ko‘rsatmalarga muhtojligi tahlil qilingan va bir qator ilmiy natijalar olingan. Nogiron shaxsning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, mustaqil harakatlanishi, mo‘ljal olish, muomala qilish, o‘z xulqini nazorat qilish, mehnat faoliyatini o‘rganish yoki mashg‘ul bo‘lish qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotishi, uni ijtimoiy muhofaza qilish choralarini amalga oshirish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Insonning nogiron bo‘lib qolgan paytida shakllangan shaxsiy xususiyatlariga insonning o‘zi uchun, uning hayolida yuz beradigan hodisalar uchun javobgarligini anglashga bog‘liq. SH.M.Amirsaidovanning tadqiqotlarida sharq mutafakkirlarining maxsus pedagogika faniga oid ilmiy fikrlari o‘rganilib, Abu Ali Ibn Sinoning maxsus pedagogika fani ravnaqi uchun xizmat qiladigan tibbiy-ilmiy, pedagogik va psixologik g‘oyalari tahlil qilinib, o‘quv jarayoniga tadbiiq etish usullari ishlab chiqilgan.

M.P.Hamidova tomonidan olib borilgan “Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar so‘z boyligini oshirishning korreksion-pedagogik asoslari” nomli tadqiqot ishida umum va maxsus pedagogik tadqiqotlar asosida aqli zaif bolalarning nutqini ko‘rikdan o‘tkazish metodlari yaratilgan. Bolalarni ko‘rikdan o‘tkazish natijasida aqli zaif bolalar nutqining rivojlanmaganlik mezonlari ishlab chiqilgan. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning predmetlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, hissiy–irodaviy sohalarini jalb etish bilan birga bilishga qiziqish va nutqiy motivatsiyani kuchaytirishga qaratilgan korreksion-



pedagogik ish mazmuni va usullari ishlab chiqilgan. D.A.Nazarova tomonidan maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishida ilk bor maktabgacha ta'limda zaif eshituvchi bolalarning nutqiy rivojlanish darajasini tadqiq qilish metodikasining moslashtirilgan varianti, maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirishning mazmuni, yangi interfaol usullari hamda shakllari, o'rganilayotgan bolalarning umumiy rivojlanishini ta'minlashda ularning o'ziga xos rivojlanish omilidan kelib chiqib, nutqini keng qamrovli rivojlantirish tizimi ishlab chiqilgan va asoslab berilgan.

M.F.Hakimovanning "Maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga tayorlashning pedagogik asoslari" (aqli zaif o'quvchilar misolida) tadqiqotlari doirasida quyidagi ilmiy natijalar olingan:

1. Maxsus maktablar, maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan sanoat kasb-hunar kollejaridagi aqli zaif o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlash ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

2. Maxsus yordamga muhtoj aqli zaif o'quvchilarning kasb-hunarni tanlashga bo'lgan qiziqishining yuzaga kelishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan.

3. O'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashda psixologik-pedagogik xususiyatlarni hisobga olgan holda, kasb-hunarga tayyorlashning metodik ta'minoti yaratilgan. Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari uchun metodik tavsiyanomalar, dars ishlanmalari va o'quv qo'llanmalar yaratilgan.

4. Maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashda xalq hunarmandchiligidan samarali foydalanilgan.

5. "Oshpaz-qandolatchi", "Keng assortimentdagi kiyimlar tikuvchisi" kabi yangi mutaxassisliklari o'quv rejasiga kiritilgan.

Maxsus ta'lim muassasalarini mehnat ta'limi o'qituvchilar uchun aqli zaif o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashga doir, ta'limning uzviyligini ta'minlash borasida pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan va maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning samarali tizimi yaratilgan.

F.Mirzayevaning "Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va ularni kasb-hunarga o'rgatish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiya ishida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishilgan. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ijtimoiy, psixologik va kasbiy moslashuv muammolariga qaratilgan inklyuziv ta'limning interfaol muloqot, hamkorlik, loyihalash va baholashdan iborat didaktik imkoniyatlari aniqlangan.

**Adabiyotlar:**

1. Axmedova M. T. Pedago O`quv qo`ll. Pedagogik konfliktologiya-T.: Adabiyog uchqunlari, 2017. – 320.
2. Анцупов А Я. Основы конфликтологии. -М.: 1998.
3. Begmatova Sevara Nematovna “The role and significance of specific competence types in the training of future teachers in modern education” ISBN 978-1-64945-234-4 DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.7527949>. CUTTING EDGE-SCIENCE 2022 Shawnee, USA November December
4. Исмоилова, Ю. Т. Формирование педагогического мастерства и культуры речи будущего учителя в процессе профессиональной подготовки. Образование и воспитание. — 2015. — № 3 (3). — С. 9-11. — URL: <https://moluch.ru/th/4/archive/9/141/> (дата обращения: 15.02.2023).
5. I Yulduz, M Umida. Pedagogical Features of the Formation of Pedagogical Ethics in Future Teachers- Бюллетень науки и практики, 2021. Related articles All 2 versions. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=ZW3KcwEAAAAJ&authuser=1&citation_for_view=ZW3KcwEAAAAJ:Y0pCki6q_DkC
6. Ю.Исмоилова. “Формирование педагогического мастерства и культуры речи будущего учителя в процессе профессиональной подготовки”. “Образование и воспитание” научный журнал. г.Казан 2015.
7. Ismailova Zuhra Karabaevna, Kamola Riskulova, Axmedov Murodjon Ubaydullaevich, Ismoilova Yulduzkhon Turaevna, Pulatova Nozima Ravshanovna “The role of electronic pedagogical tools in higher education”. SKOPUS Journal of Critical Reviews ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 5, 2020.
8. Ю.Исмоилова Формирование организаторских умений средствами педагогической игры. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. Курск 2016.
8. Sattorova.M.A. The Role of the concept of educational work of an educational organization in the formation of an inclusive environment //Eastern European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 7 No. 12, 2019. №3 Part VI ISSN 2056-5852. –P. 125-128. (13.00.00; №3) www.idpublications.org.